



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR-MAY (DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-88-07

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- may oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024 - yilning yanvar-may oylarida shahar korxonalarini tomonidan 56,2 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (77,7 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,7 trln so'mni tashkil etdi.



B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 8,6% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 17,1 % ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 13,9 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 36,4 % ga o'sish kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar - may oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,6 trln soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 15,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-may oyida, % da)



Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar - may | 2024-yil yanvar - may | Farqi +/- |
|-------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Neft, ming t. | 266,0 | 283,6 | 17,6 |
| Tabiiy gaz, mln kub.m. | 14 952,2 | 13 847,4 | -1104,8 |
| Gaz kondensati, ming t. | 314,6 | 282,5 | -32,1 |
| Chaqiq tosh ming t. | 51,2 | 73,3 | 22,1 |
| Shagʻal t. | - | - | - |

Ishlab chiqaradigan sanoat



2024-yilning yanvar - may oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,7 trln soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (2024- yil yanvar- may oyi, % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,7 % ni (2023-yilning yanvar-may – oyida – (4,2%), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,8 % (26,3%), o'rta-quyi texnologiyali – 35,7 % (29,5%) va quyi texnologiyalisi – 35,8 % (40,1%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,2 % (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 25,7 % (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 16,6 % (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,5 % (2023- yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,9 % (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,3 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024-yilning yanvar- may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7187,1 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (4,4 % ga oshgan), 17 523,3 tonna paxatadan yigirilgan ip (22,8 % ga oshgan), 876,7 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (3,6 martaga oshgan) va hamda 13 164,3 tonna Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar (44,3 %) ishlab chiqarilishi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar




Margarin va yormalar




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Pivo




Aroq



Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxtadan yigirilgan ip



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar- may | 2024-yil yanvar- may | Farqi +/- |
|---|---------------------------------|---------------------------------|----------------------|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna. | 53,8 | 30,6 | -23.2 |
| Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna. | 14,3 | 17,5 | 3.2 |
| Margarin va yormalar tonna. | 1,5 | 2,7 | 1.2 |
| Pivo – mln litr | 33,0 | 37,6 | 4.6 |
| Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona | 290,9 | 198,6 | -92.3 |
| Tamaki mahsulotlari, mln dona | 529,2 | 1661,2 | 1132.0 |
| Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t. | 6 409,0 | 2 154,8 | -4254.2 |

Metallurgiya sanoati

(2024- yil yanvar- may oyida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oyida metallurgiya sanoati ulushi 16,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 13,9% ga ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar- may oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 18,6 % ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 114,9 va ishlab chiqarish hajmi 8115,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish


(yanvar- may oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 26,4% ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar may oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 125,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2113,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



FHI
% da




Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- may oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,1 % ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar- may oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5632,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - may oyida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 9,5 % ga oshgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4563,3 mlrd so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - may oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-may oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,9 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 928,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- may oyida)



FHI
% da



2023-yilning yanvar-may oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,4% ni tashkil etgan bo'lsa,

2024- yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 112,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 862,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar- may oyida)

2023-yilning yanvar-may oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 155,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 12,8 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 1385,9 mlrd so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar- may oyida)


FHI
% da



2023-yilning yanvar-may oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 68,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 80,8 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 106,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish (yanvar- may oyida)



2023-yilning yanvar-may oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 6,1 % ga kamaygan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 121,0 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 2407,2 mlrd so'mni tashkil etdi.


Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (yanvar- may oyida)

2023-yilning yanvar-may oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi 127,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2074,1 mlrd so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar- may oyida

trln.
so'm



FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,4 trln so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-may oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,4 % ga oshgani kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar- may oyida, % da)

2023-y.



2024-y.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-may | 2024-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---------------------|---------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln kVt s | 1 378,0 | 1 526,5 | 148,5 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 5 476,7 | 4 850,7 | -626,0 |
| Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm. | 389, 0 | 626, 6 | 237,6 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar- may oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 trln so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar- may oyida, % da)



| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-may | 2024-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---------------------|---------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 74,1 | 150,6 | 76,5 |
| Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna | 140,5 | 109,8 | -30,7 |
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd so'm | 140,0 | 257,5 | 117,5 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 77,2 % ga , oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 91,2 foizga o'sish kuzatildi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonolari**
(2024-yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,3 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-may oyida Toshkent shahrida 643 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16